

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqi asosida
UO‘K: 336 (575.1)

BOLTAYEV TO‘LQIN QO‘ZIYEVICH

**TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA OPERATSIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:
I.f.d., prof Toshmatov Z.X.**

Toshkent – 2025-yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA OPERATSIYALARINI NAZARIY VA TASHKILIY ASOSLARI	11
1.1. Valyuta munosabatlarining rivojlanishi va unda valyuta operatsiyalarining o‘rni	11
1.2. Tijorat banklari valyuta operatsiyalari va ularni tasniflanishi	21
1.3. Tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini tashkil qilishning huquqiy asoslari	40
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	46
II BOB. TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA OPERATSIYALARINI TASHKIL ETILISHI VA UNI AMALDAGI HOLATI TAHLILI	48
2.1. O‘zbekiston Respublikasi valyuta munosabatlari va valyuta operatsiyalari tahlili	48
2.2. Tijorat banklari valyuta operatsiyalarining amaldagi holati tahlili...	59
2.3. Tijorat banklari valyuta operatsiyalarining ekonometrik tahlili	70
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	76
III BOB. TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	79
3.1. Valyuta kursini prognozlash va valyuta risklarini kamaytirishda ulardan foydalanish	79
3.2. Banklarning valyuta operatsiyalarida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari	89
3.3. Tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari	99
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	106
XULOSA.....	108
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	112

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar, turli darajadagi rivojlanishlar davlatlar o'rtasida valyuta almashinuvining ham turlicha prinsiplar va xarakterlarda amal qilishiga, takomillashishiga sabab bo'lib bormoqda. Valyuta kursini erkin suzib yuruvchi rejimida o'rnatilishi rivojlangan mamlakatlar valyutasini barqarorligini ta'minlasa, rivojlanayotgan va o'tish davridagi mamlakatlar valyutasini turlicha o'zgartirib iqtisodiyotga ta'sirini o'tkazish imkoniyatini yaratadi. Xalqaro valyuta fondi mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra AQSh dollari jahon bozorida hali ham juda katta rolga ega ekanligini ta'kidlashmoqda. Xususan, "Markaziy banklar tomonidan AQSh dollarida saqlanayotgan zaxiralarning ulushi 58,2 foizni tashkil etadi. Bu borada eng yaxshi ikkinchi ko'rsatkich yevroga tegishli 19,7 foiz. Keyingi o'rinlarda yena 5,6 foiz, funt sterling 4,9 foiz, Kanada dollari 2,7 foiz, Avstraliya dollari 2,2 foiz va yuan 2,1 foizni tashkil etmoqda"¹. Ushbu holatlarning mavjudligi valyuta operatsiyalari va uning rivojlanishini tadqiq etish zaruratini vujudga keltirmoqda.

Jahonda Markaziy banklar tomonidan o'z milliy valyutalari va uning boshqa davlatlar valyutalariga ayirboshlash, uni saqlash va erkin konvertatsiyalanishi bilan bog'liq bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda davlatlar o'rtasidagi noaniq bir vaziyatlarda milliy valyutaning qadrini oshirish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Tijorat banklari tomonidan tashqi savdoni amalga oshiruvchi xo'jalik subyektlarini yetarli miqdorda va kerakli vaqtda chet el valyutasidagi mablag'lar bilan ta'minlash muammosi hamda mamlakatda xalqaro standartlarda belgilangan me'yorda oltin valyuta zaxirasini ta'minlash muammosi saqlab qolinayotganligi sababli tijorat banklari valyuta operatsiyalarini takomillashtirish va uni rivojlantirish bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlarini o'tkazishni taqozo etmoqda.

O'zbekistonda valyuta munosabatlarini liberallashtirish va valyuta operatsiyalarini tashkil etishning uslubiy asoslarini mustahkamlash borasida keng

¹ www.imf.com Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi PF–5177-sonli Farmonining qabul qilinishi bilan tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha erkinligi oshdi va mamlakatimiz valyuta munosabatlarini rivojlantirishda faol bosqichga ko‘tarildi. Qabul qilingan farmonga asosan “2017-yilning sentyabr oyidan boshlab milliy valyutaning almashuv kursini faqatgina bozor mexanizmlari asosida, ya’ni valyuta bozorida chet el valyutalariga bo‘lgan talab va taklifga asosan belgilash tartibi joriy qilindi”². Ushbu Farmonning qabul qilinishi orqali valyuta sohasida yuzaga keladigan iqtisodiyotga salbiy ta’sirlarni bartaraf qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi valyuta munosabatlarini rivojlantirish, banklarning valyuta operatsiyalarini takomillashtirish, jumladan, tijorat banklari valyuta ayirboshlash shahobchalari faoliyatini soddalashtirish, xalqaro savdoga xizmat ko‘rsatish, chet el valyutasida depozitlar jalb qilish va chet el valyutasida moliyalashtirish kabi bank xizmatlarining uslubiy masalalarini tadqiq qilish, valyuta munosabatlarining asosiy tushunchalarini mohiyatini izohlash, shuningdek, valyuta operatsiyalarining erkinlashuvi iqtisodiy rivojlanish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlanishiga xizmat qilishini ta’minlash uchun uslubiy asoslarini takomillashtirish masalalari bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 2-sentyabrdagi PF–5177-sonli “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ–3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 23-martdagi PQ–

² <https://lex.uz/docs/3326421> 2017-yil 2-sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5177-sonli Farmoni.

3620-sonli “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa ushbu tadqiqot mavzusiga doir normativ-huquqiy hujjatlarda keltirilgan maqsadlarga erishishda ushbu tadqiqot ishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq holda amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Albatta, respublikamiz va chet elning taniqli olimlari valyuta kursi va uni prognozlashning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilgan. Xorijlik iqtisodchilardan J.Keyns, M.Fridmen, M.Pebro, L.Krasavina, S.Fisher, F.Maxlup, R.Mandell, A.Shmireva ³ va boshqalar o‘zlarining ilmiy risolalarida mavzuning ba’zi jihatlarini yoritgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh.Abdullayeva, A.Vaxabov, T.Boboqulov, T.Rasulov, S.Berjanov, N.Jumayev va G.Ismoilovalarning ⁴ ilmiy izlanishlarida valyuta kursi va uni shakllanishi bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Bundan tashqari, valyuta kursini tartibga solish va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili T.Boboqulov, N.Jumayev va M.Abdiraimovlar tomonidan o‘rganilgan, lekin valyuta operatsiyalari va uni prognozlash masalalari bo‘yicha alohida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

³ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. –М.: ГЕЛИОС АРВ, 1999. -352 с.; Фридмен М. Основы монетаризма / Под науч.ред. Козлова Д.А.–М.: ТЕИС, 2002. -175 с.; Пебро М. Международные экономические, валютные и финансовые отношения: Пер. с франц./ Общ. ред. Н.С. Бабинцевой. – М.: Прогресс, Универс, 1994. –496 с; Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. Под ред. Красавина Л.Н. – Москва: Финансы и статистика, 2001. -608 с.; Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика: Пер. с англ. 2-е изд. –М.: Дело, 1997. -864 с.; Machlup F. International payments, debts, and gold. Princeton University. London: George Allen & Unwin, 1966. - pp. 7-50.; Mundell R. Optimal Currency Areas / American Economic Review, Vol. 51, 1961, p. 660. Шмырева А.И. и др. Международные валютно-кредитные отношения. –СПб.: Питер, 2001. -272.

⁴ Abdullayeva Sh.Z. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. – Toshkent “Iqtisod va moliya”, 2005. -588 b.; Вахабов А.В. и др. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. I-часть. – Ташкент: НУРТ, 2003. – 276 с.; Bobakulov T.I. Milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash: muammolar va yechimlar. –Toshkent “Fan va texnologiya”, 2007. -184 b.; Rasulov T.S. Xalqaro valyuta munosabatlari nazariyasi. –Toshkent: Moliya, 2008. -345 b.; Бержанов С.А. Валютная система, валютный рынок и валютные операции. Нукус, “Каракалпакстан”, 1996. – 136 с.; Жумаев Н.Х., Кудайбергенов Ж.Ш. Валютный курс и пути её регулирования. Учебное пособие, “Iqtisod va moliya”, Ташкент, 2006, с.132.; Ismoilova G.F. O‘zbekistonda milliy valyuta – “so‘m”ning qadrini oshirish va barqarorligini ta’minlash muammolari: 08.00.01 iqt. fan. nomzodi darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2000. – 22 b.